

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
“BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM METODIKASI”
KAFEDRASI**

**141-BT va STI guruhi talabasi Qo‘chqarova Shahnoza Otabekovna
5111700- Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Boshlang‘ich sinflarda Qambar ota va M.Murodov asarlarini o‘qish
darslarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi”**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. M.Jumaniyozova

Urganch- 2018-yil



MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I bob	
Boshlang'ich sinflarda Qambar Ota asarlarini o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish yo'llari	
1.1. Qambar Ota ijodi va uning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan she'rlari mundarijasi.....	8
1.2. Qambar Ota she'rlarini o'qish darslarini tashkil qilish va samarali o'tkazish yo'llari.....	15
II bob	
Boshlang'ich sinflarda Mahmud Murodov asarlarini o'rganish darslarini tashkil qilish va o'tkazish	
2.1. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligidan o'rin olgan M.Murodov asarlarining mazmun- mundarijasi.....	26
2.2. Boshlang'ich sinflarda M.Murodov asarlarini o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.....	33
Xulosa.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar.....	57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo‘lishi iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi bevosita milliy ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog‘liq. Shuning uchun ham “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi”da xalq ta‘limi oldiga zamonaviy milliy ta‘lim-tarbiya tizimini yaratish uchun zarur bo‘lgan bir qator muhim vazifalar qo‘yilgan.¹ Shu asosda ta‘lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”²

Yosh avlodning ma‘naviy kamolotiga katta e‘tibor qaratish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarga e‘tiqod, yuksak vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish vazifalari boshlang‘ich ta‘lim oldida ham turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Undagi ona tili ta‘limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta‘limiga o‘quv fani emas, balki, butun ta‘lim tizimini uyushtiruvchi ta‘lim jarayoni sifatida qaraladi. Jamiyatimiz istiqbolda qanday bo‘lishi va unda qaysi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 15-avgust.

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016, 14-bet.

avlodlarimiz yashashi har tomonlama farzandlarimizning tarbiyasi va ta'limga bog'liq.

Boshlang'ich ta'limning sinfda o'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti haqida, ularning o'tmishi, hozirgi yashash hayoti hamda mashhur kishilar to'g'risida bilib oladilar. Ularga tabiat, ob-havo, boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqida bilimlar beriladi. Bilim olish jarayonida munosabat uyg'otiladi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi ham tarbiyalanib boriladi. Sinfda o'qish darslariga ta'lim-tarbiya vazifalari kompleks ravishda hal qilinadi. Shuningdek, o'quvchlarning ijobiy sifatlari shakllanadi, ular aqliy va estetik jihatdan kamol topadilar. Mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslariga o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, o'qish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona – Vatan, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvur tushunchalari kengaytirilib, boyitiladi.

O'qilgan asarlarning qimmati shundaki, u o'quvchi bilimini kengaytirish bilan bir vaqtda tarbiyaviy vazifalarni ham hal qiladi. V.A.Suxamlinskiy bu haqda shunday deydi:

“Bolalar dunyoni va o'z-o'zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar uchun o'zining mas'ulligini o'z-o'zidan bila borishlari kerak... Bolaga yaxshilik va yomonlikni, to'g'rilikni ko'rish imkonini berish kerak. Yaxshilik unga quvonch, zavq, hayajon, ma'naviy go'zallikka erishish ishtiyoqini beradi. Yomonlik qahr-g'azab, murosasizlik uyg'otadi. Haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma'naviy kuchga toldiradi.”

O'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida, o'z vataniga, xalqiga muhabbat, butun dunyo xalqlariga nisbatan do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalash maqsadida

vatan va uning istiqloli hamda ilgʻor kishilari, buyuk ajdodlari haqidagi badiiy adabiyot namunalari oʻqitiladi.

Boshlangʻich sinf oʻqish darslarida oʻquvchilarga nisbatan toʻgʻri munosabatda boʻlish jamoada oʻz maʼsuliyatini anglash xislatlari tarkib topdirila boriladi. Bunda boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi” darsliklaridan oʻrin olgan materiallar juda katta ahamiyat kasb etadi. Darsliklardan badiiy, ilmiy-ommabop va xalq ogʻzaki asarlari oʻrin olgan. Ular oʻquvchilar tomonidan sevib oʻqiladi va oʻrganiladi. Boshlangʻich sinf “Oqish kitobi” darsligidan oʻzbek bolalar adabiyoti vakillaridan Qambar Ota va Malik Murodovlarning ham bir qator asarlari oʻrin olgan.

Maʼlumki, ilmiy-metodik adabiyotlarda, metodik qoʻllanmalarda boshlangʻich sinflarda turli janrdagi asarlarni oʻrganish yoʻllari batafsil bayon qilingan. Xususan, K.Qosimova, S.Matchonov va b. larning “Ona tili oʻqitish metodikasi”³, Gʻ.Ernazarovning “Ona tili oʻqitish metodikasi” qoʻllanmalarida⁴, shuningdek, oʻqituvchilar uchun moʻljallangan metodik oʻqituvchi kitoblarida, taʼlim-tarbiyaga doir jurnal va toʻplamlarda bu masalaning aks etganligini koʻramiz. Lekin muayyan bir adibning asarlarini boshlangʻich sinflarda oʻrganish yoʻllarini ochuvchi metodik ishlar barmoq bilan sanarli darajada. Shu nuqtai nazardan boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi” darsliklarida berilgan Qambar Ota va M.Murodov asarlarini oʻqish darslarini tashkil qilish va oʻtkazish metodikasiga bagʻishlangan mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusi **dolzarlik** kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Boshlangʻich sinflarda Qambar Ota va Mahmud Murodov asarlarini oʻqish darslarini tashkil qilish va oʻtkazish metodikasini tadqiq qilish.

Tadqiqot vazifalari:

- boshlangʻich sinflarda oʻrganiladigan Qambar Ota va

³ Qosimova K., Matchonov S. , Gʻulomova X., Yoʻldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.

⁴ Ernazarov Gʻ. Ona tili oʻqitish metodikasi.- Toshkent:”Ilm ziyo”, 2013.

M.Murodov asarlari mundarijasini ochib berish;

- Qambar Ota va M.Murodov hayot yo‘li va ijodiy faoliyati haqida to‘xtalish;

- boshlang‘ich sinflarda Qambar Ota she‘rlarini o‘qish darslarini tashkil qilish va o‘tkazish yo‘llarini belgilash;

- boshlang‘ich sinflarda M.Murodov ertak va hikoyalarini o‘qish darslarini tashkil qilish va o‘tkazish yo‘llari ko‘rsatish;

- boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida Qambar Ota va M.Murodov asarlarini o‘rganish qo‘llaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ko‘rsatib berish;

- boshlang‘ich sinflarda Qambar Ota va M.Murodov asarlarini o‘rganishning tarbiyaviy jihatlarini ochib berish.

Tadqiqot obyekti. Boshlang‘ich sinflarda Qambar Ota va Mahmud Murodov asarlarini o‘qish darslarini tashkil qilish va o‘tkazish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Boshlang‘ich sinflarda Qambar Ota va M.Murodov asarlarini o‘qish darslarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasining mazmuni, metodlari, shakl va vositalari.

Tadqiqot metodlari. Pedagogik kuzatish, taqqoslashtirish va umumlashtirish, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning metodologik asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, O‘zR Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi va ma’ruzalari, “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi”, “Boshlang‘ich ta’lim DTC va o‘quv dasturi”, shuningdek, mavzuga oid ilmiy-metodik manba va adabiyotlar xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Boshlang‘ich sinflarda Qambar Ota va Mahmud Murodov asarlarini o‘rganishning nazariy-metodik asoslari yoritib berildi.

- Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan Qambar Ota va Mahmud Murodov asarlarining mundarijasi tahlil qilindi.
- Boshlang'ich sinflarda Qambar Ota va M.Murodov asarlarini o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi ko'rsatildi.
- Boshlang'ich sinflarda Qambar Ota va M.Murodov asarlarini o'rganishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan Qambar Ota va M.Murodov asarlarini o'rganish metodikasi nazariy jihatdan ochib berildi hamda ularni o'rganish darslarini tashkil qilish va o'tkazish yo'llari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, shu yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalar foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Kirish, II bob, to'rt qism, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Uning hajmi 58 sahifani tashkil qiladi.

I bob

Boshlang'ich sinflarda Qambar Ota asarlarini o'qish darslarini tashkil qilish va o'tkazish yo'llari

1.1. Qambar Ota ijodi va uning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan she'rlari mundarijasi

Barkamol avlod –jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamalakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “Agar biz o'z kuchi, salohiytiga ishonadigan, boqimandalikni or deb biladigan, eng rivojlangan mamlakatlarning ilg'or kishilari bilan teppa-teng muomala qila oladigan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, bu murakkab, beshavqat hayotning past-u baland, chang-u tor ko'charidan Alloh bergan aql-zakovati bilan to'g'ri yo'lni topa olishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirsak, o'ylaymanki, o'z maqsadimizga to'la erishgan bo'lamiz”.⁵ Birinchi Prezidentimiz ta'kidlagan maqsadni amalga oshirishda hamda mustaqil yurtimizga munosib farzandlarni tarbiya qilishda boshlang'ich ta'lim juda muhim o'rin tutadi.

Bu borada yurtimizda boshlang'ich talim sohasiga ham juda katta e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari juda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

⁵ Karimov I.A. . Ozod va obod vatan,erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. - T.8, - Toshkent: “O'zbekiston”, 2000, 26- bet.

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.⁶

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga va uni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish darsliklarga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, rivoyat va topishmoq kabi

⁶ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009, 70-bet.

janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o'qitiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Umuman, «O'qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish, nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich sinf "O'qish va nutq o'stirish" dasturiga muvofiq o'quvchilar badiiy, ilmiy-ommabop va xalq og'zaki ijodi asarlari bilan yaqindan tanishadilar.⁷ Ulardan namunalar o'qiydilar. O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda, ularning tafakkur olamini chuqurlashtirishda o'zbek adabiyotining atoqli namoyandalari qalamiga mansub asarlar ham alohida o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklaridan juda ko'plab adib va shoirlarning asarlari o'rin olgan. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari taniqli o'zbek shoiri Qambar Otaning ijodiga mansub she'rlar bilan tanishdilar.

Uzoq yillardan buyon bolalarga atab 20 dan ortiq she'riy kitoblar va yuzlab quvnoq qo'shiqlar yozgan shoir Qambar O'tayev (Qambar Ota) ning ijodi, ayniqsa,

⁷ Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.

mustaqillik yillarida ham mazmunan, ham sifat jihatidan gurkirab o'sdi. Endilikda u mustaqillikning Vatanimiz hamda xalqimizga keltirgan sharofati tufayli yosh yuraklarda namoyon bo'lgan ozod Vatan sevgisi, g'urur va faxr tushunchalarini ulug' muhabbat bilan tarannum etishga qalb qo'rini bag'ishlamoqda.

Shoirning so'nggi yillarda yaratgan «Toshpolvon va Ihaqida ertak», «Qush bilan gaplashdim», «Tomda uxlagan bola» kabi to'plamlariga kirgan axloqiy-didaktik xarakterdagi asarlari kichkintoylarni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalashga qaratilishi bilan alohida e'tiborga loyiq. Shuning uchun ham qariyb 30 yillardan beri sara she'rlari maktab darsliklari, darsdan tashqari o'qish kitoblaridan bolalar bog'chalari va maktablar uchun metodik qo'llanmalardan tushmay keladi. Jumladan, birinchi sinf «Odobnoma» darsligiga kiritilgan «O'zbekiston – onajon», 2-sinf «O'qish kitobi»dagi «Yershunos bo'laman», 4-sinf «O'qish kitobi»dagi «Non qayerdan keladi?» kabi talay she'rlari kichkintoylarni atrofimizdagi olam bilan tanishtirish orqali Vatanga muhabbat tuyg'ulariga turtki beradi.

Shoirning «Ay-yay-yay...», «Bolalarning ko'zlari», «Toy bola», «O'zbekiston – Onajon!», «Bunday o'lka qayda bor?!», «Bola aziz», «Kulishlaring», «Suyukli navro'zim», «Oftobjonim – o'rtoqjon», «Gul-loladan jamalak», «Gul yaxshi, lola yaxshi», «Polvonman» kabi qo'shiqlarini kichkintoylar, ayniqsa, sevib ijro qilishadi.

Shoirning «Toshpolvon va Ishpolvon haqida ertak» asarida qahramonlarning mustaqillikka mos ravishda kasb-korga qiziqishi, tadbirkorligi tufayli hayot yo'lini topishi tasvirlansa, «Vatan sog'inchi», «Tabarruk qabul» dostonlarida Vatanga yuksak muhabbat tuyg'ulari ulug'lanadi. Bunday baquvvat asarlar bolalarni haqqoniylik ruhida tarbiyalashga, Vatanni sevishga da'vat etishi bilan ajralib turadi.

Qambar O'tayevning yuqorida nomlari tilga olingan kitoblaridagi «Aziz Vatan», «Rubobim», «Ertaksevar quvnoq bola» she'rlarini o'qiganingiz sari dilingiz yorisha boradi. Kitoblardagi she'rlarning sarlavhasidanoq zavqlana

borasiz: «Quyosh bola, oy bola», «Sogʻlom avlodga balli!», «Baxt-omadi chopagʻon», «Erka qushim» va hokazo.

Shoirning «Tomda uxlagan bola» deb nomlangan kitobini qoʻlga olgan oʻquvchi, tabiiyki, bu qanday bola ekan, deb oʻylaydi. Sheʼrlar bilan tanishish jarayonida uning dastlabki xayoli tamoman oʻzgaradi. Yoz issigʻida shoʻx bolaning tunda tom ustiga chiqib yotishida oʻzga maʼno borligini bilgach, tengdoshining qiliqlaridan zavqlanadi. Bunday hazilnamo sheʼrlardan «Gʻildirak ichida yugurgan olmaxon», «Hazilkashlar», «Qovoqlar», «Yayrab yurgin, echkicham» kabi sheʼrlar bolalar dilini yayratadi. Xullas, bolalarni ham quvnatadigan, ham fikrga chorlab, oʻylatadigan asarlarida taniqli shoir Qambar Oʻtaevning talanti yorqin namoyon boʻlgan.

«Tugʻilishimda doyalik qilgan buvimning aytishi boʻyicha Navroʻz bayrami boshlanishiga 12 kun qolganda tavallud topgan ekanman, – deb yozadi shoir. – Tugʻilganlik haqidagi guvohnomani 1957- yili Kattaqoʻrgʻon shahrida olganman.

Ismim – Qambar. Bu soʻz ikki xil maʼno anglatadi; biri – yangi oy, ikkinchisi – yulduzlar turkumi. Har ikkalasining maʼnosi bir-biridan yaxshi. Yangi koʻringan oy – yaxshilik alomati. Yulduzlar turkumi – turfa-turkum doʻstlar, turfa yorqin ishlar hamrohi boʻlsin, degan maʼnoda menga bu ismni qoʻyganidan minnatdorman».

Taqdir taqozosi bilan boʻlajak shoirning bolaligi Koson va Chiroqchi dashtlarida, Urgutning Bahrin qishlogʻida, Dargʻom anhuri boʻylarida, Pastdargʻom tumani dalalarida, Kattaqoʻrgʻon shahrida va undan sollanib oqib oʻtuvchi (Oʻsha paytda toʻlib tinib yayrab oquvchi) hayotbaxsh Kattaqoʻrgʻon anhuri va Nahripoy va undan nariroqda Qoradaryo boʻylaridagi soʻlim jiydazor, oʻrikzor, uzumzorlar, turfa-tuman mevazorlarga toʻlib toshgan unutilmas goʻshalarda oʻtdi.

Vatan haqidagi birinchi sheʼri Kattaqoʻrgʻondagi Miriy nomli maktabda oʻqiyotganida tuman gazetasida yorugʻlik koʻrdi. Koʻp oʻtmay “Yongʻoq” sarlavhali masali chiqdi. Soʻng birin-ketin Samarqand viloyat gazetasida,

“G‘uncha” jurnalida she‘rlari paydo bo‘la boshlaydi. Ko‘p o‘tmay, to‘liqsiz o‘rta ma‘lumot bilan Samarqand temir yo‘l texnikumiga o‘qishga kirdi, so‘ngroq Samarqand suv xo‘jaligi texnikumida o‘qish barobarida 69-kechki maktabga o‘qishga qatnab, 1962-yili birato‘la bitirdi. Xuddi shu yilning o‘zida Alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universitetining o‘zbek filologiya fakultetiga o‘qishga kirdi. Bu davr ichida uning ancha-muncha she‘rlari turli nashrlarda ko‘zga ko‘rinib, tanilib qolgandi.

Ijodga qattiq ko‘ngil qo‘ygan shoir 1974-yilda oilasi bilan Toshkentga ko‘chib kelib G‘afur G‘ulom nomli Adabiyot va san‘at nashriyotida ish boshlaydi. Bisotida ancha yetilib qolgan she‘rlarini to‘plab “Vatan tuprog‘i”, “Bizning kosmos” nomli kitoblarini chop ettirdi. She‘rlari va ertak-dostonlari tiniqib, tilga tusha boshladi. Ayniqsa, bolalarga atalganlari soddaligi, oddiyligi, dilga yaqinligi bilan kichkintoylar quvonchiga quvonch qo‘sha bordi. Yillar osha Respublikamizning atangan kompozitorlari shoirning o‘ziga yoqqan she‘rlaridan tanlab qo‘shiqqa aylantirishdi. Pedagog-olimlar tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘lgan, talant bilan yozilgan asarlarini turli maktab darsliklariga, darsdan tashqari o‘qish kitoblariga, metodik qo‘llanmalarga, qo‘shiqlarini esa musiqa darsliklariga kiritishda davom etdi.

Shoir Qambar Otaga yozgan asarlari ichida vatanparvarlik, ta‘lim tarbiyaga oid “Sadoqat”, “O‘zbekiston, onajon”, “Vatan sog‘inchi”, “O‘xshamay ketgur...”, “Qo‘ng‘izlar jangi” “Bola aziz”, “Sardor afsonasi”, “O‘tgan gap” kabi teran mazmunli she‘rlari va talant bilan yozilgan “Erka egizaklar”, “Bog‘bon hikoyasi” dostonlari, yuzlab qo‘shiqlari shuhrat keltirdi.

“Yoshlik sururi”, “Chinor ansambli”, “Adashboy”, “Bizning kosmos”, “Tinim bilmas Shamolvoy”, “Chavandoz orzusi”, “Shirin so‘z”, “G‘ildirak”, “Tabiatga rahmat”, “Sizday yashagim kelar”, “Bolalarning ko‘zlari”, “Toshpolvon va ishpolvon haqida ertak”, “Guldasta”, “Alifbe bayra mi”, “Quyosh bilan gaplashdim”, “Kitobsevar Oftoboy”, “Tomda uxlagan bola”, “Quyosh bola, oy bola” kabi bolalarga bag‘ishlangan, “Vatan tuprog‘i”, “Diydor”, “Izlar”, “Tinmay

izlan, yuragim”, “Dil ko‘rki” kabi kat talarbop she‘riy majmualar e‘lon qildi. Tarjimon sifatida belorus, ukrain, latish, eston, rus, shuningdek, jahon bolalar shoirlari ijodidan saralab, ozbek tiliga o‘girdi. Ayni chog‘da o‘zining ham ko‘plab she‘rlari rus, belorus, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik, uygur, turk tillariga tarjima qilindi.

2017-yilda shoirning 1-4-sinflar uchun mo‘ljallangan “Birinchi qo‘ng‘iroq” she‘riy to‘plami nashr qilindi. Mazkur to‘plamning so‘zboshisi o‘rnida T.Adashboyevning “adabiyotning jon tolmas ijodkori” maqolasi keltirilgan. T.Adashboyevning ta‘kidlashicha, Qambar Otaning ellikka yaqin sheri boshlang‘ich sinf darsliklari, darsdan tashqari oqish kitoblari, maktab va bog‘chalar uchun uslubiy qo‘llanmalar, tabiat darsliklariga kiritilgan. Uning yuzdan ortiq she‘rlariga kuylar bastalandi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, Qambar Ota adabiyotimizning jon tolmas ijodkorlari sifatida kitobxonlarimiz qalbidan mustahkam o‘rin egallagan.⁸

Shoirning ijodi 1999-yilda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklariga Qambar Otaning quyidagi she‘rlari kiritilgan:

2-sinf “O‘qish kitobi” darsligiga “Zumrad bahor bahridiling ochar” bo‘limida “Polvonman” she‘ri⁹, “Tabiatni asrang, avaylang” bo‘limida “Yershunos bo‘laman” she‘ri¹⁰, “Yoz – o‘tadi soz” bo‘limda esa “Yoz keldi”¹¹ she‘ri berilgan.

4-sinf “O‘qish kitobi” darsligining “Yoz o‘tadi soz” bo‘limidan shoirning “Non qayerdan keladi?” she‘ri o‘rin olgan.¹²

⁸ O‘tayeov Q. Birinchi qo‘ng‘iroq.-Toshkent: “yangi asr avlodi”, 2017, 5-bet.

⁹ G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016, 121-bet.

¹⁰ O‘sha manba, 157-bet.

¹¹ O‘sha manba, 160-bet.

¹² Matchonov S., Shojalilov A.va boshqalar. O‘qish kitobi. 4- sinf uchun darslik.- Toshkent, “Yangiyo‘l Poligraph servise”, 2017.

Qambar Otaning bu she'rlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ifodali o'qish malakalarini rivojlantirishga, ularni ona-tabiat go'zalliklari bilan tanishtirishga, aqliy qobiliyatlari o'sishiga xizmat qiladi.

1.2. Qambar Ota she'rlarini o'qish darslarini tashkil qilish va samarali o'tkazish yo'llari

Barkamol avlod –jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada yurtimizda boshlang'ich talim sohasiga ham juda katta e'tibor qaratilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan lirik she'rlarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ular o'quvchilarning his-tuyg'usiga kuchli ta'sir qiladi, estetik didini tarbiyalaydi, ularda vatanparvarlik, vatanga intilish vago'zallikka muhabbat hislarini uyg'otadi. Lirik she'rlar ifodali o'qish orqaligininglovchi qalbiga to'liq borib yetadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan Qambar Otaning she'rlari ham lirik she'rlar hisoblanadi. Odatda, lirik she'rlarda shoirning ichki kechinmalari bilan birga tabiat ko'rinishi ham ifoda etiladi, shuning uchun she'rdagi peysaj tasvirini o'rganish ham alohida ahamiyatga egadir. Bundan maqsad tabiatdagi turli fasllar ko'rinishini inson qalbiga ta'sir etishini, Vatan tabiati va uning go'zalligidan ilhomlangan shoirning fikri va hissiyotini o'quvchilarga yetkazish hamda ularda emotsional kayfiyat uyg'otishdan iboratdir. Buning uchun o'rganiladigan asar mazmuniga qarab quyidagi metodik usullardan foydalanish mumkin:

1. Tabiat quchog'iga ekskursiya.
2. Rasm, kartinalarni namoyish etish.
3. Texnika vositalaridan foydalanish
4. Ifodali o'qish .
5. Suhbat va boshqalar.

Boshlang'ich sinfda Qambar Otaning she'rlari mazkur metodik usullar asosida o'rganilsa, lirik qahramonning kechinmasi, ruhiy kayfiyati o'quvchini hayajonlantiradi, chunki shoirning fikr tushunchasi, hissiyoti, hayajoni, ovozi she'riy nutq ritmikasidan ifodali o'qish orqali jaranglab sado berib turadi.

Ekskursiya Qambar Otaning "Yoz keldi" she'rida ifoda etilgan peyzaj tasvirini puxta o'rganishga katta yordam beradi. Chunki ekskursiya o'quvchilarni Vatan tabiatini kuzatishga, vatanimizning rang-barang go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. Yoz faslining ajoyib husn-jamoli, bog-roq'lari daryo va jilg'alari o'tloqlari - bularning hammasi ekskursiya orqali idrok etiladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, tabiat manzarasi kishilarni va ularning mehnati bilan birga kuzatiladi va ularga alohida e'tibor beriladi. Bunday ekskursiya o'quvchilarda Vatan tabiatiga qizg'in muhabbat uyg'otadi, uni yanada yashnatishga intilish paydo qiladi. Tabiat bilan ana shunday yaqindan amaliy aloqa bog'lash o'quvchilar tasavvurini boyitadi, ifodali o'qish mashg'ulotlarining jonli o'tishi uchun yordam beradi. Xullas, lirik asarlardagi peyzaj tasviri qanchalik puxta, atroflicha analiz etilsa, bolalar ham uni shunchalik ta'sirchanlik bilan ifodali o'qiydilar. O'qituvchi analizni tamomlagandan so'ng, lirik she'rni yana bir marta ifodali o'qib beradi. Shunday mashg'ulot o'tkazgan vaqtdagina lirik she'rni ideyasi, badiiy xususiyatlari o'quvchilarga tushunarli bo'ladi.

Qambar Otaning "Yoz keldi" she'ri o'quvchilarni yoz fasli tabiati bilan tanishtiradi va ularning estetik zavqini o'stirishga xizmat qiladi. Mazkur she'rda bolalarning quvnoq hayoti bilan yoz manzarasi o'zaro bog'liq holda tasvirlanadi. She'rni o'qigan yoshlarning vatanga muhabbat tuyg'usi estetikasi rivojlanadi. Ularning tabiatning go'zal manzarasidan behad zavqlanadilar. She'rning ana shu muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini ochishda o'qituvchining metodik mahorati katta rol o'ynaydi.

"Yoz keldi" she'rini o'rganish uchun yoz faslida tabiatga, dala va bog'larga ekskursiya, kirish suhbat, o'qituvchining ifodali o'qishi, analiz va mavzu

yuzasidan suhbat, o'quvchilarning she'ni ifodali o'qishlari, yakuniy suhbat va yakuniy ifodali o'qishdan iborat qator metodik usullar qo'llanadi.

Sinfda she'ni o'rganishga qadar tabiatga ekskursiya uyushtirish lozim. Bu vaqtda o'quvchilar may oyidagi yoz manzaralarini zavq bilan kuzatadilar. Ekskursiyada yoz manzarasiga oid xalq maqollari va topishmoqlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan:

Yoz yopinchog'ingni qo'yma,

Qishda o'zing bilasan. (Maqol)

Sayohat- tanga rohat. (Maqol)

Odamni po'stin emas, ish qizdiradi. (Maqol)

Oyog'i yo'q, qo'li yo'q, yo'lda turib yo'l boshlar. (Shamol)

Yozda kiyinadi, qishda yechinadi. (Daraxt)

Bunday xalq maqollari va topishmoqlaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini va kuzatuvchanligini o'stiradi.

Kirish suhbatida yoz fasli haqida, tabiatga yoki bog'-rog'larga qilingan ekskursiya taassurotlari asos qilib olinadi. She'ni o'rganishda o'quvchilarning diqqati ular ko'rgan, sezgan, his etgan narsalarga jalb etiladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'ni ifodali o'qib beradi bu paytda o'quvchilar kitoblarini yopib qo'yib, she'ni diqqat bilan tinglaydilar.

O'qituvchi she'ni ifodali o'qish uchun oldindan tayyorgarlik ko'radi.

Buning uchun u she'ning vazni, qofiyalari, turog'i, urg'u va ohangi, pauza va tempini aniqlaydi. Ifodali o'qish vazifalarini belgilab chiqadi va ifodali o'qiydi:

Yoz keldi-yu yoz keldi,

Kunlar nurli, soz keldi.

Quyosh jilmayib boqar,

Yuragidan o't yoqar.

Olam sirli doshqozon...

Daraxt, ko'chatlar larzon.

Egilib turar bazo'r,

Har yig'ilgan hosil zo'r!
Salqin bedapoyaga,
Ko'rpacha sol soyaga.
Yoz yozadi dasturxon:
«Huzur qilsin har bir jon!»

She'rni tahlil qilish orqali o'quvchilarning g'oyaviy badiiy tomondan chuqurroq tushunib oladilar. Sher mazmuni yuzasidan qilinadigan suhbatning borishi 5-10 minutdan oshmasligi, qo'llaniladigan usullar o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilishi kerak. She'ning g'oyaviy mazmuni vatanimiz tabiatining go'zalligini tasvirlashdan iboratdir. She'ning tili sodda, shirador, o'xshatish sifatlash jonlantirishlarga boy, o'ynoqi va ritmik jarangdor.

O'qituvchi she'ning bir bandini doskaga yozib, uni qanday o'qish yo'llarini, ovozning o'rtacha balandlikda bo'lishni ta'kidlaydi va zarur ko'rsatmalar beradi:

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. She'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandchilik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan sohta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qitiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Unda quyidagicha savollar berilishi mumkin: "She'r qaysi fasl haqida?" "Shoir yoz faslida tabiatda bo'ladigan o'zgarishlarni qanday ta'riflaydi?"

O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning yoz fasli haqidagi tushunchalarini boyitadi.

She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi.

She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya.

Qambar Otaning "Yoz keldi" she'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. She'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
2. She'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
3. She'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez) ;
4. She'rni yod aytib berishga tayyorlanish.

Mazkur she'rni 2-sinfda o'qish darsi ishlanmasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Mavzu: Yoz keldi. (*Qambar Ota*)

Darsning nomi: Yoz dasturxon.

Maqsad:

- O'quvchilarni ravon va ifodali o'qishga o'rgatish.
- Tabiat ne'matlarini qadrlashga o'rgatish.
- O'quvchilarning yoz fasli va tabiat haqidagi tasavurlarini kengaytirish.

Jihoz. Yoz faslida tabiat tasvirlangan surat, boshqotirmalar.

Dars jarayoni:

1- **bosqich.** O'qituvchi Qambar Otaning «Yoz keldi» she'rini ifodali o'qib, mazmunini so'zlab beradi. She'r o'quvchilarga qismlarga bo'lib, ifodali o'qitiladi.

10 daqiqa

2- **bosqich.** O'qituvchi o'quvchilarni guruhlarga bo'ladi va ularga topshiriq beradi.

Guruhlarga topshiriq.

Yoz fasli o'quvchilar uchun dam olish davri hisoblanadi. Sizlarning tengdoshlaringiz yozda qayerda dam olishlari haqida suhbatlashib qolibdilar va o'zlari dam oladigan maskan nomini boshqotirmada ko'rsatib beribdilar. Hozir sizga tarqatiladigan boshqotirmalarni hal qilsangiz, Ibratjon, Sarvarjon, O'tkirjon va Abdullajonlarning dam olish maskanlari nomi kelib chiqadi.

1-boshqotirma.

5	3	1	9	7	2	6	4	8
g	o	o	a	h	r	o	m	d

(Javob: oromgohda.)

2-boshqotirma.

3	5	i	4	6	10	7	2	8	9	11
V	m	b	i	n	d		u	k	i	a

(Javob: buvimnikida.)

3-boshqotirma.

6	5	1	8	2	3	7	4
q	o	q	a	i	sh	d	1

(Javob: qishloqda.)

4-boshqotirma.

2	4	6	1	5	3	9	7	8
0	k	n	T	e	sh		t	d

						a		
--	--	--	--	--	--	---	--	--

(Javob: Toshkentda.)

Taqdimot. Har bir guruhdan bir o‘quvchi boshqotirmani hal qilish yo‘lini tushuntiradi va javobni aytadi.

20 daqiqa

4-bosqich. O‘qituvchi o‘quvchilardan yoz oylarida qayerda dam olishlari va nima ish bilan mashg‘ul bo‘lishlari haqida so‘raydi. Shu savol yuzasidan bahs-munozara o‘tkaziladi. Darslikdagi qo‘shimcha materiallar ustida ish olib boriladi.

8 daqiqa

Muhokama:

- Shoir yoz faslida tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlarni qanday ta’riflaydi?
- Shoir «Yoz yozadi dasturxon» deganda nimani nazarda tutadi?

6 daqiqa

Kengaytirish. O‘quvchilarga uyda tabiatni kuzatish va yoz faslida pishadigan mevalardan birining rasmini chizish topshirig‘i beriladi.

Baholash. O‘quvchilar reyting mezonlari asosida baholab boriladi va mashg‘ulot yakunida umumiy ballar e’lon qilinadi.

1 daqiqa

2-sinfda Qambar Otaning “Yershunos bo‘laman” she’ri o‘qib-o‘rganiladi.

YERSHUNOS BO‘LAMAN

Qambar Ota

Men yershunos bo‘laman,

Tekshiraman yer sharin.

Bir kun aytib beraman

Uning hamma dardlarin.

Mehribon onam deya,

Bag‘riga qo‘l solaman.

Bir kichik farzand bo‘lib,

Ko‘ngillarini olaman.

Istagim: Yer qadriga
Yetmagan zot qolmasin.
Biz uni e'zozlaylik,
Yerimiz hech tolmasin.

Baxtimiz garovidir
Tuproqning har zarrasi.
Yo'latmaylik Yerga g'am,
Bo'lmasin hech yarasi.

Men yershunos bo'laman,
Tekshiraman Yer sharin.
Qanday yaxshi, biz Yerning
Tuzatolsak dardlarin.

Bu she'r o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib berilgach, o'quvchilar bilan savol-javob tashkil qilinishi mumkin:

1. She'r kimning nomidan aytilgan?
2. Yer nega onaga qiyoslanadi?
3. Siz tevarak-atrofingiz tozaligi uchun nima qila olasiz?
4. Shoir yershunos deganda kimni nazarda tutyapti?

O'quvchilar javoblari to'ldirilgach, she'r matnidan so'ng berilgan maqol va topishmoqlar ustida ishlaladi. Maqolning ma'nosi izohlanadi. Tabiat, ona-zamin haqida o'quvchilar bilgan maqollar aytiriladi.

Maqol: Ona yerning tuprog'i – ona sutiday aziz.

Topishmoq: Zar gilam, zar-zar gilam,

Ko'taray desam, og'ir gilam.

(Yer)

Qambar Otaning "Yershunos bo'laman" she'rini o'qish darsi ishlanmasi:

Mavzu: Yershunos bo'laman (Qambar Ota)

Maqsad: O'quvchilarni:

- ifodali o'qishga o'rgatish;

- tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish;
- tabiat haqidagi qarashlarini rivojlantirish.

Jihozlar: 3 ta Yer sharining rasmi chizilgan katta hajmdagi plakat, 3 ta plakatdagi rasmga o'xshagan yer sharining shakli. Ularning har biri 4 qismga bo'linadi va har birining orqa tomoniga bittadan savol yoziladi.

Dars jarayoni:

1- bosqich. O'qituvchi o'quvchilarga «Zilol suv» hikoyasini qismlarga bo'lib o'qitadi va mazmunini hikoya qildiradi, savol-javob o'tkaziladi. Uyga berilgan vazifaning bajarilish darajasini tekshiradi. O'qituvchi o'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar fikrini umumlashtiradi va mavzuni xulosalaydi.

10 daqiqa

2- bosqich. O'qituvchi yangi mavzuni e'lon qiladi va she'rni ifodali o'qib, mazmunini so'zlab beradi. She'r qismlarga bo'lib o'quvchilarga o'qitiladi.

7 daqiqa

3- bosqich. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga qog'ozdan yasalgan Yer shari shaklini 4 qismga bo'lib, orqa tomoniga savollar yozib tarqatiladi. Xattaxtaga har bir guruh uchun katta hajmdagi qog'ozga Yer shari rasmining qoralamasi chizib qo'yiladi. Savollarga to'g'ri javob bergan guruh o'quvchilari qo'llaridagi qismni o'z o'niiga yelimlaydilar, javob noto'g'ri bo'lsa, qog'oz o'rniga yelimlanmaydi. Savollarga javoblarning to'liqligi Yer shari rasmining to'liq bo'lishi bilan belgilanadi.

Guruhlarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Tabiat deganda nimalarni tushunasiz?
- Yer shari ham «betob» bo'lishi mumkinmi?
- She'rda nima uchun Yer onaga qiyoslanadi?
- Ichimlik suvi qayerlarda bo'ladi?
- O'simliklarga nimalar kiradi?
- Hayvonlarning qanday turlarini bilasiz?
- O'simliklarni asrash uchun nima qilish kerak?

- Suvni toza saqlash uchun nima qilish kerak?
- Hayvonlarni qanday asrash mumkin?
- Agar yer yuzida o‘simliklar bo‘lmasa nima bo‘ladi?
- Agarda ichimlik suvi bo‘lmasa, insonlarning ahvoli nima bo‘ladi?
- Agarda Yer shari «betob» bo‘lib qolsa, o‘simliklar, hayvonlar va insonlarga qanday ta’sir qiladi?

O‘qituvchi guruhlarining ishini baholaydi, o‘quvchilar boshqa guruh o‘quvchilari fikrini to‘ldiradilar, g‘oliblar aniqlanadi.

Darslikdagi maqol, topishmoq va tez aytish ustida ish olib boradi.

16 daqiqa

Muhokama:

- Mashg‘ulot sizga yoqdimi?
- She’r kimning nomidan aytilgan?
- Mashg‘ulot davomida nimalarni bilib oldingiz?
- Yer ham betob bo‘lishi mumkinmi?
- Uni davolash uchun nimalar qilish kerak ekan?
- O‘ylab ko‘ring-chi, siz yerning sofliqi uchun nima qila olasiz?

6 daqiqa

Baholash. Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar baholanadilar.

1 daqiqa

Qambar Otaning “Polvonman” (2-sinf) va “Non qayerdan keladi?” (4-sinf) she’rlari ham shu tartibda o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratishda, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirishda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samara berishida asosiy rol o‘ynovchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarini ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish bugungi kunning dolzarb masala bo'lib, darslarni qiziqarli bo'lishini, samarador bo'lishini ta'minlaydi. Chunki ilg'or ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi o'quv jarayonini faollashtirish, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil fikirlashga hamda o'z fikrini bayon etishga o'rgatishdir.

Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Ta'lim texnologiyalarini qo'llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Binobarin, Qambar Ota she'rlarini o'rganishda "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Tushunchalar tahlili", "Ikki qismli kundalik", "Kichik guruhlarda ishlash", "Zig-zag" kabi turli-tuman unterfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlariga yordam beradi va ularning faolligini oshiradi.

II bob

Boshlang'ich sinflarda Mahmud Murodov asarlarini o'rganish darslarini tashkil qilish va o'tkazish

2.1. M.Murodov ijodiy faoliyati hamda uning boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rin olgan asarlarining mazmun- mundarijasi

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni amalga oshirishning birdan-bir yo'li ta'limstandart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta'lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyligi, ta'limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning uztuvorligi Davlat ta'lim standartlari doirasida hammaning bilim olish imkoniyatlarini yaratilishi bilan belgilanishi bejiz emas.

Boshlang'ich ta'lim davlat qonunini hayotga tadbqiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o'qitish asosiy o'rinni egallaydi. Bunda ayniqsa, o'qish darslarining juda ahamiyati katta. 1-sinfda savod o'rgatish yakunlangach, o'qish darslari boshlanadi va 2-4-sinflarda izchil davom ettiriladi.

Sinfda va sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuni kichik yoshdagi o'quvchilarda Ona Vatanga muhabbat uyg'otish maqsadlariga xizmat qiladi. O'qish bolalarning nutq boyligini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o'rgatishning muhim omilidir. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim tizimida muhim o'quv predmeti ta'lim berish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

O'qishga o'rgatishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- Boshlang'ich o'quv malakalarini (to'g'ri va ifodali o'qishni)

takomillashtirish;

- Bolalarni o‘qigan asarlarining adabiy estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularda tasvirlangan voqea-hodisalarning mohiyatini anglash va undan muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash;

- Bolalarda yuksak axloqiy qarashlar va nafosat tuyg‘usini tarbiyalash;
- O‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish.

Bu vazifalar dasturda berilgan badiiy, adabiy asarlar, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida amalga oshiriladi. Har bir sinf o‘qish dasturi quyidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi:

- O‘qish mavzulari va yod olish uchun asarlar;
- O‘qish ko‘nikmasi va malakalari;
- Matn va bog‘lanishli og‘zaki nutq ustida ishlash;
- Sinf dan tashqari o‘qish o‘qish dasturini tuzishda g‘oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olinadi. Shunday qilib, o‘quv materiallari bolalarga ta’lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo‘lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni badiiy, adabiy asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o‘qish dasturlarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standartlari (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O‘qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Bunda ko‘proq o‘zbek bolalar adabiyoti namunalariga murojaat qilinadi.

O'zbek bolalar adabiyotida Mahmud Murodov ijodi ham katta o'rin tutadi.

Odatda, biror yozuvchi haqida so'z ketganda, eng yaxshi asarlari va ulardagi yetakchi qahramonlar bilan birga, o'sha yozuvchining ijodkor sifatidagi o'ziga xos ma'naviy, ijodiy olami tilga olinadi. Kichkintoylarning sevimli yozuvchisi, dramaturgi, tarjimon Mahmud Murodov to'g'risida gapirganda bog'cha va maktab yoshidagi kichik bolalarga atalgan ko'plab kitoblari bilan birga, adibning bolajonligi esga keladi. Yozuvchi asarlarining kitobxonlar o'rtasida ommalashib ketishining asosiy sabablaridan biri ham bolalarga bo'lgan samimiy muhabbatidir. Aksari hollarda, bevosita bo'lmasa-da, adibning o'zi asarlarining bosh qahramoni sifatida maydonga chiqadi. Bunday vaqtda – u goh nima yaxshiyu nima yomonligi ustida tortishayotgan bolalarga birdan-bir to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi amaki, goh biror nojo'ya xatti-harakati sababli xijolat bo'lgan bolaga samimiy maslahat berayotgan mehribon bobo timsolida namoyon bo'ladi. Har qanday holda ham uning maqsadi bitta – kitobxon qalbiga ezgulik urug'ini sepish.

Mahmud Murodovning ijodiy yo'li boshqa yozuvchilarnikidan ancha-muncha farq etadi.

«Maktabda o'qib yurganimda, – deb eslaydi yozuvchi, – «Olmazor» mahallasi choyxonasida gazetalar o'qib berardim. «Ko'k ko'ylak» to'garagi tuzib, turli yig'inlarda kontsertlar qo'yib berardik. Marhum Bahrom Rahmonov bilan birgalikda «Qizil pojar» to'garagi tuzib, «Mergancha» mahallasidagi A.Ikromov nomli klubda tomoshalar ko'rsatardim. Keyinchalik institutni bitirguncha Toshkentdagi 9, 17-bolalar uyida tarbiyachi bo'lib ishladim. Shu davrda «Vojatiy» jurnalida faol qatnasha boshladim».

Yosh yozuvchining ijodiy faoliyati shu davrdan boshlab matbuot bilan chambarchas bog'lanadi. «1947-yili meni «Lenin uchquni» gazetasiga chaqirishdi, – deb yozadi adib tarjimai holida. – U yerda avval maktab bo'limi mudiri, keyin mas'ul kotib, 1953- yildan beri to shu vaqtgacha «G'uncha» jurnalida mas'ul kotib bo'lib ishlab kelmoqdaman».

Bundan yozuvchi ijodiga qanot baxsh etgan omil uning roʻznoma va oynoma muharririyatlaridagi qaynoq mehnati ekanligini sezish qiyin emas. Lekin u badiiy mahoratini oshirishda shu bilan cheklanib qolmadi. «Stepan Razin» (1941), «Oʻrtoqlaring sen bilan» (1951), «Kapitan xonimi» (1959), «Tutqunlikdagi jangchilar» (1964) povestlari, koʻpdan-koʻp hikoya va ertaklarning tarjimalari M.Murodov uchun chinakam mahorat maktabi boʻldi.

Bolalar matbuotidagi xizmati, oʻz navbatida, yozuvchi asarlarining mavzu doirasini ham belgilab berdi. Bu haqda u quyidagilarni qayd etadi: «Yozadigan narsalarim koʻproq tartib-intizom, Vatanga muhabbat, toʻgʻrilik, yaxshi oʻqish, tabiatni sevish, doʻstlik, mehnatsevarlik, sodiq oʻrtoqlik, goʻzallikni sevish, hayvonu qushlarga gʻamxoʻrlik, kattalarni hurmat qilish hislarini uygʻotish, davlat mulkini saqlash, ota-onalarga mehr, dovyuraklik haqida boʻladi».

M.Murodov kitoblari soni jihatidan maqtovgʻa loyiq emas. «Yaxshi amaki», «Sirli don», «Eng maza joy», «Koʻprik», «Kim eng kuchli», «Sanoq», «Bogʻchv bola», «Kichik doktor»... Lekin qator ertak va hikoyalari oʻz toʻplamlaridan tashqari boshlangʻich sinflar darsliklari orqali kichik kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Darhaqiqat, adib asarlarining oʻziga xos xususiyati kitobxonlarining yosh xususiyatlari, ruhiy olami, hayotiy tushunchasi bilan bogʻliq. Yozuvchining koʻpgina asarlari shaklining ixchamligi, syujetining qiziqarli voqealar asosiga qurilganligi, tasvir uslubining soddaligi bilan ajralib turadi.

Adib ularda kichkintoylar hayotidan olingan oddiy voqealar tasviridan umumlashma xulosalar chiqarishga, shu orqali kitobxonni rang-barang olam va insoniy munosabatlar bilan tanishtirishga, tarbiyaviy jihatdan muhim bir gʻoyani ilgari surishga intiladi.

«Kimning oyisi zoʻr?» hikoyasi syujeti Karimjon, Olimjon va Bahodir degan bolalar oʻrtasida boʻlib oʻtgan bahs asosiga qurilgan. Bahs ular uchun oʻyin, shu bilan birga, oʻzlarini qiziqtirgan jumboqlarning magʻzini chaqish vositasi. Yozuvchi mazkur hikoyada bahs-oʻyin tasviri orqali oʻquvchi diqqatini insoniylik masalasiga qaratadi.

Bahsning bosh sababchisi – Bahodir degan bola. Olimjon uni davolab oyoqqa turg‘izgani uchun onasini dunyoda eng zo‘r insonlardan biri, deb maqtanadi. Bunga Karimjonning ham bo‘sh kelgisi yo‘q. Chunki Olimjonning onasi davolovchi vrach bo‘lsa, uning onasi dori tayyorlovchi – farmatsevt. Karimjonning tushunishicha, agar farmatsevtlar dori tayyorlamasa, bemorlarni, jumladan, Bahodirni davolash haqida gap ham bo‘lmas edi. Bahodirning nazarida esa, ulardan har ikkalasining gapida ham jon bor. Ammo bular hali kimning onasi eng hurmatga loyiqligi haqidagi bahsga to‘la javob bo‘lolmaydi.

Bahodir otasining gaplaridan odamlarga gazlama to‘qib bergani uchun o‘z onasini ham albatta hurmatga sazovor, degan qat’iy xulosaga keladi. Kitobxon xulosasi bunga nisbatan yanada kengroq. U turli sohalarda ishlaydigan kishilar mehnati odamlar farovonligiga qaratilishi, shu tufayli mehnat – shon-sharaf ishi ekanligi, boshqacha aytganda, «odamiy ersang demagil odam, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami» (Navoiy) haqida jo‘n tarzda bo‘lsa-da, tasavvur hosil qiladi.

Muallifning o‘zini kichik kitobxon bilan nihoyatda muhim masala xususida kuyunchaklik bilan gaplashayotgandek, ayni paytda, erkin tutishi o‘quvchida asar voqealariga ishonch va qiziqish tug‘diradi. Bu esa yozuvchining jiddiy muammolarni ham o‘quvchilar yoshiga mos, ishonarli yo‘sinda ifodalash mahoratini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, bolalarga bag‘ishlangan asarlar kattalar adabiyotidan o‘quvchilar yosh xususiyatlarining alohida hisobga olinishi bilan ajralib turadi. Masalan, bog‘cha yoshidagi bolalar asarlari bilan o‘rta yoxud katta yoshdagi bolalar va o‘smirlar asarlari, garchi bir xil yuksak badiiy talablar asosida yaratilsa-da, shakli, ifoda uslubi, syujet qurilishi va kompozitsion tuzilishiga ko‘ra farqlanadi. Aslida chinakam san’at namunasi bo‘lgan bolalar asarlarini kattalarning o‘qib, zavq olishi, ammo kattalarga mo‘ljallangan asarlarni bolalar o‘qiy olmasligini nazarda tutib, ma’lum ma’noda kattalar adabiyotini cheklangan, deyish mumkin.

Kichkintoylarga bag‘ishlangan badiiy asarlar tili, ifoda uslubi, syujet qurilishi, kompozitsiyasi tuzilishi jihatidan farqlansa-da, tarbiyaviy maqsadga qaratilishi jihatidan mushtaraklikka ega.

Mahmud Murodovning «Bog‘cha bola», «Kaska», Baxtini topgan Bahriniso», «Kim eng yaxshi?», «Salom, Quyosh bobo!», «Jonli surat» kabi qator hikoya va ertaklarida tarbiyaviy g‘oya bolalarga tanish hayot materiallari orqali ifoda etiladi.

«Bog‘cha bola» hikoyasi bolalarning kundalik hayotidan olib yozilgan. Asar qahramoni Shukurjon kitobxonga na mustaqil yuvinish, na kiyinish va na ovqatlanishni bilmaydigan bola sifatida tanishtiriladi. Adib hikoyada jajji qahramonning bog‘chaga borgandan keyin odatdagi turmush tarzining o‘zgarishi holatlarini qalamga oladi, uning hayotga munosabatidan tarbiyaviy xulosa chiqaradi. Tabiiyki, uy sharoitiga o‘rgangan bola bog‘chada – jamoa ichida ancha qiyinchiliklarga duch keladi. Yozuvchi qiyinchiliklar tasviriga batafsil to‘xtalib o‘tirmasdan, ularning qahramonga ta’sirini bir-ikki ishorada berishga muvaffaq bo‘lgan. Zero, ko‘p so‘zlilikning har qanday turi bolalar asarining tabiatiga ziddir. Muhimi shundaki, adib qahramon fe‘l-atvorining o‘zgarishiga asos bo‘ladigan holat yarata olgan. Bu, bog‘chadagi o‘rtoqlarining Shukurjonni o‘z-o‘ziga qaray olmaslikda mazax qilishidir. O‘rtoqlari uning ustidan noo‘rin kulganlarida Shukurjonning o‘chakishi hech gap emas edi. Ammo u bog‘cha opasining g‘amxo‘rlik bilan qilgan muomalasidan o‘rtoqlarining tanbehi to‘g‘riligini, o‘zining nohaqligini tushunib yetadi.

M.Murodov hikoyalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri – nima yaxshiyu nima yomonligi «ko‘rgazmali» tarzda, ya’ni biror e’tiborli voqea misolida aks ettirilishidir. Yozuvchi «ko‘rgazma» uchun qahramonlar hayotiga oid murakkab ziddiyatlar to‘qib o‘tirmaydi. Aksincha, hammaga tushunarli oddiy voqealar tasviridan muhim tarbiyaviy ma’no keltirib chiqaradi. Shu xildagi asarlaridan «Dog‘», «Xo‘p bo‘ladi», «Velosiped» hikoyalari syujeti qahramonlarning o‘z-o‘zini fosh qilish voqealari asosiga qurilgan.

«Dog'»da Anvarjon degan bola qo'lini yuvmasdan dasturxonga artish bilan irkitligini, «Xo'p bo'ladi»da Usmonjon degan bola akasi bilan suhbat chog'ida odobsizligini, «Velosiped»da ko'cha-ko'yda hech kimni mensimaydigan bola bobosiga hurmatsizlik ko'rsatib, manmanligini fosh etadilar.

Ayrim bolalar xulq-atvoridagi illatlar tanqidiga qaratilgan «Ikki xil yordam», «U bilan o'ynamayman» hikoyalarining fosh qiluvchi ruhi yanada keskin. Adib ularda kichik qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi va yomon tomonlarni taqqoslab ko'rsatish yo'lidan boradi. Shunisi muhimki, o'sha jarayonda kitobxon qahramonlardan qaysi birining xatti-harakati to'g'ri-yu, qaysiniki noto'g'riligini ortiqcha izohlarsiz tushunib yetadi.

«Ikki xil yordam»da tasvirlanishicha, ko'chada ketayotgan ikki o'rtoqning biri yo'lovchi ayolga to'r xaltasidan kartoshkasi tushganini aytib, o'tib ketadi. Ikkinchisi esa hech narsa demasdan kartoshkani yerdan olib, ayolning to'r xaltasiga solib qo'yadi. Yozuvchi shu tarzda ikki o'rtoqning xatti-harakatini kishi bilmas bir-biriga solishtirar ekan, ulardan qaysi birini ma'qullashni o'quvchining o'ziga havola etadi.

Mazkur asarlar kichik yoshdagi bolalar nasrining eng yaxshi namunalaridan bo'lib qolishiga shubha yo'q. Ularning boshlang'ich sinf darsliklaridan mustahkam o'rin olib kelayotgani bejiz emas.

Adib o'z qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvori haqida so'z yuritganda masalaga g'amxo'r tarbiyachi, mehribon ustoz sifatida yondashadi. Kitobxonlarga o'zidagi eng yaxshi xislatlarni singdirishga harakat qiladi. Kitoblardan birini «Yaxshi amaki» deb nomlashi ham, ehtimol, shu tufaylidir.

Boshlang'ich sinf "O'qish va nutq o'stirish" dasturiga ko'ra boshlang'ich sinflarda M.Mahmudovning bir qator hikoyalari o'qib-o'rganiladi. Jumladan, 2-sinf "O'qish kitobi" darsligining "Zumrad bahor bahridiling ochar" bo'limida Mahmud Murodovning "Bir tup sada"¹³ berilgan.

¹³ G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016, 109-bet.

3-sinf “O‘qish kitobi” darsligining “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limidagi “Adabiy ertaklar” qismidan M.Mahmudovning “Chumchuqcha” ertagi o‘rin olgan.¹⁴

Darslikning “Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limida esa “Olma” hikoyasi,¹⁵ “Go‘zal fazilat — inson husni” bo‘limida “Sohiba kimdan xafa?” hikoyasi berilgan.¹⁶

Bu ertak va hikoyalarning barchasi mazmun-mohiyati bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy sifatlarini shakllantirishga, ularni barkamol inson ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Uning qaysi bir hikoyasini olmaylikki, unda yosh kitobxonga o‘rnak bo‘ladigan fazilatlar tilga olinmagan bo‘lsa. Zero, kichik yoshdagi bolalar uchun asar yaratish nihoyatda mas‘uliyatlidir. Qaysi yozuvchi o‘z zimmasidagi mas‘uliyatni sezgan holda qo‘liga qalam tutsa, uning asari umum manfaati yo‘lida xizmat qilaveradi.

Bolalarning sevimli yozuvchisi Mahmud Murodov ijodi buning yorqin timsolidir. Uning asarlari faqat bugungi kun uchun emas, balki kelajakka xizmat etishi bilan ham alohida e‘tiborga loyiq.

2.2. Boshlang‘ich sinflarda M.Murodov ertak va hikoyalarini o‘rganish yo‘llari

Boshlang‘ich sinf «O‘qish kitobi» darsligidagi berilgan Mahmud Murodovning bitta ertak va uchta hikoyasini o‘qish jarayonida o‘quvchilar mard, to‘g‘ri, mehnatsevar, vatanparvar, kamtar va mehribon kishilar haqida tasavvur hosil qiladilar; ma‘naviy barkamol insonga xos fazilatlarni bilib oladilar. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida bolalarni badiiy asarlar vositasida estetik tarbiyalashga alohida ahamiyat beriladi. O‘qitilayotgan matn va uni o‘rgatish metodlari bolaning estetik qabul qilish qobiliyatini, tabiat va jamiyatdagi haqiqiy

¹⁴ Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyrva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016, 31-bet.

¹⁵ Shu manba, 47-bet

¹⁶ Shu manba, 177-bet

go‘zallikni ajrata olish, kishilar hayoti va san’atdagi go‘zallikni his qilish kabi estetik fazilatlarni rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim.

O‘quvchi asar qahramonlarining yaxshi va yomon- barcha harakatlariga baho bera olishi kerak.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklarida berilgan M.Mahmudovning ertak va hikoyalarini: “Chumchuqcha” ertagi (3-sinf), “Bir tup sada” hikoyasi (2-sinf), “Olma” hamda “Sohiba kimdan xafa?” hikoya (3-sinf)larini o‘qish bolalarning aqliy jihatdan o‘rishiga ham katta yordam beradi. O‘qilgan asarlar matni ustida muhokama yuritish, matndagi asosiy masalalarni ajratish, syujetning rivojlanishini kuzatish, unda ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvorini izohlash, asar tilini tahlil qilish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettiradi; taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatlarini o‘stiradi.

Boshlang‘ich sinflarda M.Mahmudov hikoyalarini o‘rgatish uchun o‘qituvchi, avvalo, hikoyalarni o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslarini bilishi zarur.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirilib tasvirlanadi.¹⁷ «Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir», -deb ta’riflanadi ilmiy adabiyotlarda.¹⁸

Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko‘rinish, portret tasviri, voqea-hodisalarhaqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo‘lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyalarni o‘qiishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda

¹⁷ Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009, 112-bet.

¹⁸ Sulton I Adabiyot nazariyasi.0 Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980, 245-bet..

savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo‘ladi. So‘roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash; voqea-hodisalar, xatti-harakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Masalan, “Bir tup sada” hikoyasini o‘qish darsida quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Hikoyaning asosiy qahramoni kim? U qanday inson bo‘lgan ekan?
2. Daraxt ekishning xosiyati nimada ekan?
3. Siz ham ko‘chat o‘tqazganmisiz?

Bu savollar hikoya mazmunini bilib olishga yordam beradi va hikoyaning g‘oyasini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hikoya matnidan so‘ng keltirilgan “Bir kishi ariq qazir, Ming kishi suv ichar” maqolini tahlil qilish bilan hikoya mazmunini ochib berishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3-sinfda “Olma” hikoyasini o‘qish darsida esa quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Bolalar yakshanba kuni qayerga borishdi? Nima uchun borishdi?
2. Quدرات ota bolalarga nima dedi?
3. Nima uchun bolalar darrov ishga kirishib ketidlar?
4. Ota bolalarga qanday minnatdorchilik bildirdi?
5. Bolalar nima uchun Kamolni ko‘rishga borishdi?
6. Kamol nima uchun o‘zini tuzalib qolganday his qildi?

M.Mahmudov hikoyalarini o‘qish darsida o‘quvchilar ma’nosini tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So‘z ma’nosini tushuntirishga ko‘p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo‘lgan so‘zni izoh berish bilan tushuntiriladi. Xususan, 2-sinf o‘quvchilari “Bir tup sada” hikoyasidagi sada – daraxt turi; hissa – vaqt, davr so‘zlarini izohlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Olma” hikoyasidagi chilpib yurmoq –butamoq; o‘qtin-o‘qtin-har vaqt-har vaqt; g‘amxo‘rlik- qayg‘urish, holidan xabar olish so‘zlarini izohlash mumkin.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqea-hodisaning yo'nalishini ochishga, sharoitni, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga tavsif, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilar yordam beradi.

M.Mahmudov hikoyalarini o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish jarayonida tanlab o'qish, ma'lum topshiriq bilan qayta o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzish, so'z bilan yoki grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

M.Mahmudov hikoyalarini o'qishda hikoyaning hajmi, mazmuni hisobga olinadi va darsning maqsadi aniq belgilanadi. Hajmi jihatidan uncha katta bo'lmagan hikoyani o'qish darsini tashkil qilishda ushbu rejadan foydalanish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlanish.

2. Hikoyani ovoz chiqarib yoki ichda o‘qish.
3. Hikoya mazmunini o‘quvchilar qanchalik idrok etganini tekshirib ko‘rish.
4. Hikoyani ovoz chiqarib qayta o‘qish va mazmunini chuqur tahlil qilish uchun suhbat o‘tkazish.
5. Hikoya mazmunini qayta hikoya qilish.
6. Yakunlovchi suhbat.
7. Ifodali o‘qishga yoki ijodiy ishga tayyorlanish.
8. Hikoyani ifodali o‘qish yoki sahnalashtirish.
9. Hikoya matni mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javob topish, reja tuzish, ijodiy qayta hikoya qilishga tayyorlanish kabi topshiriqlarni bajarish va uning qanday bajarilganligini tekshirish.
10. Darsni yakunlab uyga vazifa berish, keyingi darsda hikoya yuzasidan takroriy mashg‘ulot o‘tkazish mumkin.
11. Hikoyaning ayrism o‘rinlarini tanlab o‘qish. Qayta hikoya qilish, mazmuni asosida rasm chizish uchun suhbat o‘tkazish.
12. Lug‘at ishi.
13. O‘quvchilarning bilimlarini tekshirish.¹⁹

Boshlang‘ich sinflarda M.Mahmudov hikoyalarini o‘qishda nimalarga alohida ahamiyat berish kerak? Birinchi navbatda, hikoya mazmuni – voqealar rivoji, qatnashuvchilarning xatti-harakati va xarakteriga xos xususiyatlari ularning yashash sharoitlari bilan bog‘liq holda qaraladi. Masalan, o‘quvchilar «Olma» hikoyasini o‘qib, mazmunini tahlil qilganlaridan so‘ng nima uchun mehnating singgani shirinroq bo‘lishini bilib oladilar. “Bir tup sada” hikoyasida esa insonning ezgu ishi unutilmasligini, hamisha yillar o‘tsa-da o‘ziga rahmat keltirib turishini hamda “Birni kessang, o‘nni ek” maqolining mohiyatini tushunib oladilar.

¹⁹ Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009, 115-bet.

Ma'lumki, sinfda o'qish asosida hikoya matni turadi. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish o'qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi hikoya muallifi, ya'ni yozuvchi haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, hikoya pafosini his etish, notanish va ko'p ma'noli so'zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Agar hikoya o'qishdan oldin tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hikoya matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o'ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma'qullaysiz?
Qaysi birining fe'l-atvori, o'zini tutishi sizga yoqmadi?
3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Sinfda hikoya o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan yana biri tanlab o'qishdir. Masalan: Alohida epizodni o'qituvchi topshirig'i yoki so'rog'i asosida tanlab hikoya qilishni 3-sinfda Mahmud Murodovning "Sohiba kimdan xafa?" hikoyasida Sohibaning dugonasi tug'ilgan kuniga g'ijim ko'ylakda borgan va uyalib qolgani epizodi o'qituvchining – Sohiba dugonasi bilan nima haqda suhbatlashdi? savoli asosida tanlab hikoya qilinadi.

3-sinfda M.Mahmudovning "Olma" hikoyasidagi Quadrat otaning bolalarni olqishlagan epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Kichik badiiy hikoyani o'qishga tayyorlanish kabi izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti sxemasi olinadi:

◀ hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...);

◀ hikoyani (to'liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi;

◀ idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);

◀ hikoyani qayta o'qish (hikoyani qismlarga bo'lish, o'quvchilarga o'qitish, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

◀ hikoyaning har bir bo'limi yuzasidan suhbat o'tkazish va sarlavha topish; hikoya rejasini tuzish;

◀ hikoyaning ayrim bo'limlarini ifodali o'qish;

◀ reja asosida qayta hikoyalash;

◀ hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);

◀ hikoyani ifodali o'qish yoki ifodali qayta hikoyalash.

Bu hikoyani o'qish darsi rejasining varianti bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, badiiy hikoyani o'qish darsida uning mazmunini, asosiy fikrini bilish bilan birga, asarning tarbiyaviy ahamiyati va ta'siri (badiiy asar misolida o'quvchilarni tarbiyalash), xususan, estetik ta'siri ham ko'zda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Hikoya ustida ishlash badiiy asar ustida ishlashning uch bosqichiga ko'ra amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (birinchi tarkib) – bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig'i bilan tanishtirish, asarning hissiy ta'sirini aniqlashdir.

O'qituvchi hikoyani o'qib beradi hamda uning mazmunini so'zlab beradi, o'quvchilarga hikoya qanday ta'sir qilayotganini aniqlab boradi, savollar berib aniqlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan hikoyalar, yuqorida aytib o'tganimizdek, hajm jihatidan kichkina, mazmuni sodda bolishidan tashqari, rasm va bo'yoqlarga boy bo'lishi kerak.

Ikkinchi bosqichda hikoyadagi syujet rivojining sabab-natija bog‘lanishini belgilash; ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvorini va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash; hikoya kompozitsiyasini ochish, hikoyaning aniq mazmunini tasviriylar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholashdan iborat. Masalan, “Olma” (3-sinf) hikoyasida tasvirlanayotgan voqealar: yakshanba kuni boalarning Quadrat ota olmazoriga borib olmalarni terishga yordam berishgani, so‘ngra otaning boalalarga minnatdorchilik bildirib, eng sara olmalardan berishi, bolalarning o‘rtoqlari kamolni ko‘irshga borishi kabi voqealarning bir-biriga bog‘lanib davom ettirilishi o‘quvchilarga tushuntirib boriladi. Keyin esa bolalarning odobi, mehnatsevarligi qanday ekanligi aniqlanadi, hikoyada ishtirok etayotgan bolalarning mehnatsevarligi va g‘amxo‘rligi baholanadi.

Uchinchi bosqichda esa hikoyada ishtirok etayotgan qahramonlarning muhim xususiyatlari umumlashtiriladi, qahramonlarni taqqoslash va baholash, g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlash kabi ishlar amalga oshiriladi. Hikoya g‘oyasidan kelib chiqqan holda, odobli, kamtar, mehnatsevar, halol, kattalarni hurmat qiladigan kishilar hamisha baxtli bo‘lishga haqli ekanligi o‘quvchilarga tushuntiriladi. Hikoyadan bahramand bo‘lgan har bir bola ota-bobolarimizdan qolgan ulug‘ fazilatlariga ega bo‘lib o‘sishi tabiiy. Lekin bolalarni kichik maktab yoshidan boshlab kitobga mehr qo‘ydirish muallimlarimizning mas‘uliyatli vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlariday, “... bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan”.²⁰ Chunki kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

²⁰ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma’naviyat”, 2008, 55-bet.

Hikoya matnini tahlil qilishda hikoyani jonli qilib aytib berish muhim jarayon hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda hikoyalarga qiziqish uyg'otish maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- hikoyalar leksik va sintaktik xususiyatlari saqlangan holda og'zaki hikoya tarzida aytib beriladi va shunday hikoya qilib so'zlab berish talab qilinadi. Chunki hikoya mazmunining o'quvchilarga to'la yetib borishi uchun o'qituvchi yoki o'quvchi uni mustaqil badiiy hikoya qilib berishi kerak.

- hikoya aytib berilgandan so'ng mustaqil o'qitiladi. O'qish jarayonida ayrim so'zlarga izoh beriladi;

- hikoya g'oyasi savol-javob orqali ochiladi;

- hikoya syujeti asosida rasmlar chiziladi;

- hikoya qahramonlarining sifatlari hayotdagi kishilar xarakterlariga, sifatlariga solishtirilib, o'z xulosalarini mustaqil aytishlari o'quvchilardan talab etiladi;

- hikoya mazmuni asosida o'quvchi aqliy faoliyatining rivojlantirilishiga doir mustaqil ish o'tkaziladi.

M.Mahmudov hikoyalarini o'rgatishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- hikoya xususiyatlarini ochish maqsadida suhbat o'tkaziladi. Suhbat davomida mehnatkash xalqning baxtli, ozod va farovon turmush haqidagi orzu-umidlari ifolanganligi aytib o'tiladi. Bunga doir hayotiy misollarni hikoyadan topib aytish o'quvchilardan so'raladi.

- hikoya syujeti asosida rangli rasmlar chiziladi.

- hikoyalarni o'rgatishda barcha boshlang'ich sinflarda ta'lim nazariyasining onglilik tamoyiliga to'la amal qilish taqozo etiladi. Shuning uchun ham mustaqil holda o'quvchilarning qiyoslash, solishtirish, to'g'ri xulosa chiqarishlari tashkil etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi M.Mahmudovning har bir hikoyasini o'rgatishda uning tarbiyaviy jihatlarini o'quvchilar ongiga to'liq yetib borishini ta'minlovchi ish usullarini qo'llashi lozim.

Har bir hikoya umumlashtiruvchi suhbatdan yoki o'quvchilar uyda o'qib kelganlaridan so'ng qayta hikoya qildiriladi. Tanlab hikoya qilish yoki so'zlar vositasida o'qilganning mazmuni yuzasidan rasm chizishdan suhbatga tayyorgarlik jarayonida foydalanib, qayta hikoyalashdan oldin o'tkaziladi. Badiiy hikoya mazmuni yuzasidan o'tkaziladigan yakunlovchi suhbatda uning g'oyasi aniqlanadi. O'qituvchi hikoyadagi asosiy fikrni aniqlash va hikoya mazmuniga o'z munosabatini bildirishda o'quvchilarga yordam beradi. O'quvchilar hikoyada ishtirok etuvchilarning yaxshi tomonidan, yutuqlari bilan quvonadilar, yovuzlardan nafratlanadilar.

Yuqoridagilarga asoslanib 3-sinfda Mahmud Murodovniyning "Sohiba kimdan xafa?" hikoyasini o'rganish darsida o'quvchilarga qizlarga xos fazilatlarni «Klaster» usulida yozish topshirig'i beriladi. Topshiriq bajarilgach, qizlar tartibsiz, pala-partish yursalar qanday ahvolga tushishlari haqida o'quvchilar fikrlari tinglanadi. So'ng yangi dars mavzusi e'lon qilinadi. Hikoya muallifi Mahmud Murodov haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Matn yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

- Hikoya nima haqida ekan?
- Nima uchun Sohiba ko'ylagini topa olmadi?
- Sohiba dugonasining uyiga qanday ko'ylakda bordi?
- Sohibaning dugonalari qanday holatda tug'ilgan kunga keldilar?
- Nima uchun Sohibaning ko'zlariga yosh keldi?
- Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Matn o'quvchilarga «Zanjir» usulida ketma-ket o'qitiladi.

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

Lug'at ishi:

uloqtirdi – otdi, tashladi

kuymalanayotgan – yumush bilan band

gavjum – odam ko‘p joy

to‘zigan – yoyilgan, taralmagan

charos ko‘zlar – qora, dumaloq ko‘zlar

Hikoya qismlariga sarlavha qo‘yiladi.

1. Dazmollamay kiyilgan ko‘ylak.

2. So‘nggi pushaymon.

«**Maqollar zanjiri**» o‘yini o‘tkaziladi.

Erinchoq ikki ishlar, oxiri barmog‘in tishlar.

Dangasaga bulut soyasi ham yuk.

Dangasaning ishi bitmas,

Yoz kelsa ham qishi bitmas.

Ishyoqmasga so‘z yoqmas.

Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar.

Saodat va Sohiba qiyosiy tavsif beriladi:

Saodat	Sohiba
Tartibli	Tartibsiz
Saranjom	Partish

Boshlang‘ich sinflarda M.Mahmudovning “Chumchuqcha” ertagi ham o‘qib-o‘rganiladi. Bu ertak 3-sinf “O‘qish kitobi” darsligining “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limida “Adabiy ertaklar” qismida berilgan.

Ma‘lumki, ertaklar xalq og‘zaki ijodining epik turiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati – voqeabandligi, biror voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilinishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g‘aroyib, jozibali qilib, kishilarda badiiy zavq uyg‘otadigan qilib aks ettiradi.

Ertak folklor asari. Shuning uchun ham xalq ogʻzaki ijodiga xos ijodiy mahsuli boʻlib, koʻpchilik tomondan aytilishi, ogʻzaki yoʻl bilan tarqalishi, anʼanaviylik, ijodchisining nomaʼlumligi – anonimlik, bir sujetning xalq orasida bir qancha variantlarda ijro etilishi – ertaklarga xosdir.²¹

Shuningdek, adabiy ertaklar ham mavjud boʻlib, ular maʼlum bir muallif tomonidan yaratiladi. Oʻzbek bolalar adabiyotida adabiy ertaklar ham salmoqli oʻrinni egallaydi.

Har bir adabiy ertakning xususiyat tarkibi, uning gʻoyaviy mazmunini, badiiy vositalari oʻziga xos xususiyatni koʻrsatib turadi. ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib oʻqilishining sabablaridan biri ertak tilining taʼsirchanligi, oʻtkirligi, maʼnodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning koʻpchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qoʻshilib ketadi.

Ertakning oʻtkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning gʻoyaviy yoʻnalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo gʻalaba qilishi bolalarni oʻziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil soʻz va iboralarining qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining taʼsirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar oʻqituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning hulq - atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga boʻlgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga boʻlib oʻqiydilar.

Ertakni oʻqishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliqni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat oʻtkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi

²¹Imomov K., Mirzayev T. va b. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi.-Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1990. 187-bet.

badiiy obrazlarni, ularning o‘zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi.

O‘quvchi ertak mazmunini o‘zlashtirib olgandan so‘ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o‘quvchilarning o‘z nutqida til vositalaridan o‘rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo‘li bilan bog‘lanishli nutqni o‘stirish, nutqning ta’sirchanligini oshirish lozim.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o‘rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. O‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
2. O‘qituvchining ertakni ifodali o‘qishi, yod aytib berishi;
3. Ertakni o‘quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish;
4. Ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma’nodosh so‘zlarni topish, lug‘at ishi (ayrim so‘zlar ma’nosini tushuntirish);
5. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish);
6. Ertakni so‘zlab berish;
7. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g‘oyasini ochish);
8. Ma’lum vazifa bilan ertakni qayta o‘qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
9. Vazifani tekshirish va yakunlash;

10. Uyda ertakni o‘qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.²²

Boshlang‘ich sinf ertak o‘qish darslarining tuzilishi ta‘lim-tarbiyaviy maqsadi, dars tipi va o‘rganiladigan materiallarning xususiyati ga ko‘ra turli xildir. Shuningdek, dars qurilishida ham qat‘iy andoza bo‘lmaydi, chunki yagona andoza birinchidan, ijod korlikka yo‘l bermaydi, ikkinchidan, o‘quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari turli ertaklarni eshitish va o‘qishni yoqtiradilar. Odatda, ayrim o‘qituvchilar ertakni birinchi marotaba o‘qitganlaridan keyin o‘quvchilarga savollar berib, javob olishga intiladilar. Biroq bunga o‘quvchilar hali yetarlicha tayyor bo‘lmaydilar. Chunki bolalar ertak mazmunini yuzaki tushungan bo‘lishlari mumkin. Shuning uchun dastlabki idrokni chuqurlashtirish maqsadida bolalarni ertak mazmuniga olib kirish lozim bo‘ladi. Bunga yordam beruvchi usullardan biri matn ustida ishlashdir.

Keyingi jarayonlarda u bir necha ertakni qiyoslash, taqqoslash, ertak qahramonlariga taqlid qilish va tavsif berish, mavzuli yo‘nalishda o‘zgarishlarni sezish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Ertakning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, qahramonlardan biri ijobiy, ikkinchisi salbiy bo‘ladi. Bu hol M.Mahmudovning “Chumchuqcha” ertagida ham kuzatiladi.

Ertak ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida chuqchuqlarning polapon ochib, ularni parvarishlashi, kun kelib, bu chumchuqchalarning mustaqil ucha olishlari va oziqlanishlari tasvirlanadi.

Ertakning ikkinchi qismida esa Ahmadjonning rogatka bilan ona chumchuqni otish, ammo chumchuqcha onasiga qalqon bo‘lib, shikastlanishi o‘z aksini topgan. Aqlli bola Rahimjonning iti chumchuqchaning joniga oro kiradi. Uni tishida ushlab egasining oldiga olib boradi va Rahimjon oyog‘i shikastlangan chumchuqchani parvarish qiladi.

²² Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009, 108-109-bet.

Ertak o‘qib bo‘lingandan keyin bolalarni umumlashma, xulosa chiqarishga undash, «Agarda sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘lar eding? Seningcha, qaysi ertak qahramoni yaxshi yoki yomon? Agarda rahimjon chumchuqchaga yordam bermasa nima yuz berishi mumkin edi?» kabi savollar bilan erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini yanada oshirishga yordam beradi.

O‘qituvchi tomonidan mahorat bilan yetkazilgan ertak bolada ko‘tarinki, quvnoq kayfiyatni yuzaga keltirishga, bola bilan his-hayajonli, do‘stona muloqotni o‘rnatishga, sezdirmay, osonlik bilan tarbiyaviy ta’sirni tashkil etishga, atrof-muhit haqidagi bilim va ma’lumot zahiralarini samarali to‘ldirishga imkon yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar badiiy matn bilan asosan o‘qish, eshitish, qayta hikoyalash orqali tanishadilar. Shu bois asosiy diqqatni matnni ifodali o‘qish mahoratiga, kerakli joylarda mantiqiy urg‘u berish, to‘xtamlarga amal qilishga qaratmoq lozim. Masalan, Chumchuqchanning “chiriq-chiriq” degani nima degani? Matndan shu o‘rinni topib o‘qing kabi tanlab o‘qishlarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ertakning tarbiyaviy jihatlari uning personajlariga ta’rif berish bilan aniqlanadi. Bu yerda “Venn diagrammasi” dan samarali foydalanish mumkin.


“Venn diagrammasi” - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarni solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

«Venn diagrammasi» metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va

sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'quvchilar "Venn diagrammasi" ni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralar uchun umumiy bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi.

"Chumchuqcha" ertagidagi Ahmad va Rahimjonlarga tavsif berishda "Venn diagrammasi" dan samarali foydalanish mumkin bo'ladi:



Mazkur ertakni o'qish darsida "Klaster" metodidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir qahramonning o'ziga tegishli bo'lgan xususiyatlari shu yo'l bilan ochib beriladi.

«Klaster» metodi. Klaster inglizcha so'z bo'lib (sluster) bosh, bir shingil, popuk ma'nosini anglatadi. Bu matnning ma'noli birliklariga ajratish va ularning bir bosh uzum shaklida joylashtirilishidir. Klaster - bu ma'lum bir mavzu bo'yicha erkin va ochiq o'ylashga yordam beruvchi strategiya bo'lib, fikrlashning chiziqsiz (notekis) shaklidir. Bu usuldan fikrlash bosqichida xam foydalanish mumkin.


Bu metod pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga hikoyalardagi ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq

o‘ylash va fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar urtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzunini ta’lim oluvchilar tomonidan chuqur xamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Klaster” metodidan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing, Fikringizning sifati xakida o‘ylab utirmay, ularni shunchaki yozib boring.
2. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.
3. Belgilangan vaqt nixoyasiga yetmagunicha, yozishdan tuxtamang. Agar ma’lum muddat biror bir g‘oyani uylay olmasangiz, u xolda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu xarakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish xamda mazkur g‘oyalar urtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga xarakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular urtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

“Chumchuqcha” ertagidagi Rahimjon va Ahmadga ta’rifni o‘quvchilari Klaster shaklida ko‘rsatishlari mumkin. Bunda quyidagi Klaster hosil boladi.



Xuddi shu tarzda Ahmadga ham Klaster yordamida o‘quvchilar ta’rif berishadi. Ikkala bolaga berilgan ta’riflardan keyin “Aqliy hujum” dan foylanailadi:

1. Siz kimga o‘xshashni xohlaysiz? Nima uchun?
2. Ahmad qanday o‘zgarishi mumkin?
3. Rahimjonni nima uchun yaxshi ko‘rib qoldingiz.

Bu va bu kabi savollarga javob berish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkuri o‘sib boradi. Shu bilan birga ularning so‘z boyligi ham orta boradi, nutqi o‘sadi.

M.Murodovning «Chumchuqcha» ertagini o‘qish darsining ishlanmasi quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Mavzu: «Chumchuqcha». *Ertak.* (Mahmud Murodov)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, adabiy ertak haqida tushuncha berish, to‘g‘ri va ravon o‘qishga o‘rgatish, o‘lkamizda yashaydigan qushlar haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda mehribonlik, rahmdillik kabi xislatlarni, qushlarga nisbatan g‘amxo‘rlik tuyg‘ularini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning matnni ifodali o'qish, og'zaki hikoya qilish, test yechish, qarama-qarshi ma'noli so'zlarni aniqlash malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodlari: suhbat, savol-javob, «Mosini top» ta'limiy o'yini.

Dars jihozi: qushlar rasmi, multimedia ilovalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish. Davomatni aniqlash. O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish. O'quvchining odob-axloq qoidalari haqida suhbat o'tkazish.

II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilar «Ahillik-ulug' baxt» ertagini navbat bilan o'qib beradilar. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test sinovi o'tkaziladi.

Test topshiriqlari:

1. Donishmand cholning nechta o'g'li bor edi?

A) 4 ta B) 5 ta

D) 6 ta E) 7 ta

2. Gapni to'ldiring: «Aqlli cholning o'g'illari xo'p ...

bo'lib o'syapti.»

A) dono B) ahmoq

D) ishyoqmas E) aqlli

3. Chol qayerga borib novdalar qirqib kelibdi?

A) o'rmonga B) tog'ga

D) cho'lga E) yaylovga

4. O'g'illari nimani sindira olmadilar?

B) bitta novdani B) cho'plarni

D) o'tinni E) dastalangan novdalarni

5. Maqolni to'ldiring: «Ahillik – ulug' ...»

A) baxt B) omad

D) boylik E) davlat

III. Yangi mavzuni tushuntirish.

O'zbekistonda yashaydigan qushlar haqida suhbat o'tkaziladi. Chumchuqlar hayoti haqida ma'lumot beriladi. Yangi mavzuning sarlavhasi e'lon qilinadi: «Chumchuqcha». *Ertak. (Mahmud Murodov)*

O'quvchilarga «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» multimedia resursidan foydalangan holda xalq ertaklari va adabiy ertaklar haqida ma'lumot beriladi.

«Chumchuqcha» ertagi mazmuniga mos animatsiyali lavhalar ko'rsatiladi. Kadr ortidan ertak matni o'qib eshittiriladi.

Matnda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

Lug'at ishi:

polaponlar – qushlarning hali pat va qanot chiqarmagan yoki endigina chiqara boshlagan bolasi

tavakkal – oqibat-natija qanday bo'lishidan qat'i nazar, biror ishga jazm qilish

rogatka – kichik tosh va kesak otish uchun ayri yog'ochga rezinka o'rnatib yasalgan asbob

qalqon – ofat, balo, ko'ngilsiz hodisalardan saqlovchi vosita; to'siq, g'ov

Suhbat uchun savollar:

1. Ertak qahramonlari kimlar?
2. Chumchuqcha «chirq-chirq» deganda nimani tushunasiz?
3. Ahmadga qanday baho berasiz?
4. Hikoyadan qanday saboq oldingiz?

O'qituvchi ertakni darslikdan ifodali o'qib beradi. O'quvchilar kuzatib, tinglaydilar.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

«Quvnoq daqiqalar» o'yini. O'quvchilar quvnoq savollarga javob bering.

1. Kun bilan tun qachon teng bo'ladi?
- 2 Qishdan keyingi va yozdan oldingi fasl nima? (Bahor)

3. Nima ortga qaytmaydi? (Vaqt)
4. Osmon bilan yer o'rtasida nima bor? (Bilan)
5. Tuzsiz taom? (Sumalak)
6. Kecha – «ertaga», ertaga – «kecha» bo'ladigan kun qaysi? (Bugun)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

«Chumchuqcha» ertagini o'quvchilar navbat bilan o'qiydilar.

«Mosini top» mashqi o'tkaziladi.

Ertak qahramonlariga mos xususiyatlarni o'z o'rniga joylashtiradilar.

Ahmad	Rahimjon
berahm	aqli
axloqsiz	odobli
odobsiz	rahmdil
qo'rs	mehribon
bezori	oqko'ngil

Mashq natijasi tahlil qilinadi va xulosa yasaladi.

V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Sizning tanishlaringiz orasida Ahmadga o'xshagan bolalar bormi?
2. Ahmadga o'xshagan bolalarga nima degan bo'lardingiz?
3. Siz kimlardan va nima uchun rahmat eshitgansiz?

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

«Chumchuqcha» ertagini ifodali o‘qish, mazmunini og‘zaki hikoya qilish, qismlarga sarlavha toppish.

Ko‘rinadiki, M.Mahmudov qalamiga mansub ertak va hikoyalarni o‘qish darslarida o‘qituvchi ularning tarbiyaviy jihatlariga katta e‘tibor qaratadi va shu nuqtai nazardan turli ish usullarini qo‘llaydi.

Xulosa

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni-bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan – bir yo'li ta'lim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm – fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy – axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Maktab ta'lim-tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda uning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish o'qituvchining o'z burch, vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Barkamol insonni, ya'ni, avvalo, o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi shaxsni tarbiyalashga ham shu yerda zamin qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.”

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida darsliklardan o'rin olgan Qambar Ota va va Mahmud Murodovlar asarlarining katta ahamiyati bor.

Boshlang'ich sinflarda Qambar Otaning to'rtta she'ri va M.Murodovning bitta ertagi hamda uchta hikoyasi o'qib o'rganiladi.

Qambar Otaning she'rlari o'zining g'oyaviy-siyosiy va badiiy estetik yuksakligi bilan alohida ajralib turadi. Ular o'quvchilar ongida hayotbaxsh g'oyalar paydo qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bu she'rlarni o'rganishda ularning mazmuni, hajmi va mavzusi xususiyatlaridan kelib chiqib metod tanlanadi. Bu she'rlarni o'rganishda ko'proq shoirning his-tuyg'ulari ifodasiga, chiqargan xulosasiga e'tibor qaratiladi.

Mazkur she'rlarni o'qish darslarida o'quvchilarni matn mazmuni bilan tanishtirish, ularda to'g'ri va ifodali o'qish malakalarini shakllantirish kabi ta'limiy maqsadlar nazarda tutiladi. Shuningdek o'quvchilarda ona-tabiatga mehr uyg'otish, bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlariga havasini orttirish kabi tarbiyaviy maqsadlar ilgari suriladi.

M.Murodovning hikoyalari qahramonlari o'quvchilarning o'zlariga tengdosh samimiy bolalardir. Bu qahramonlar orqali o'quvchilarda mehnatsevarlik, do'stlik, g'amxo'rlik va yurtimizga, uning ona-tabiatiga mehr-muhabbat tuyg'ulari singdiriladi. Shu bois hikoya o'qish darslarida hikoyalarning mazmun-mohiyatini ochib beradigan ish turlaridan: savol-javob, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash, tanlab o'qish, badiiy tasviriyy vositalarni aniqlash kabilardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslari o'z mohiyati va maqsad – vazifalariga ko'ra juda katta o'rin tutadi. Shuning uchun o'qish darslari zamon talablari asosida ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan sanaladi. Boshlang'ich sinflarda Qambar Ota va Mahmud Murodov asarlarini o'qish darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi, ularga fan asoslaridan chuqur bilim beruvchi texnologiyalarni qo'llash yaxshi natijalar beradi. Shu bois mazkur adiblarning asarlarini o'qish darslarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'rinli bo'ladi. Binobarin, ularni o'qish darslarida turli interfaol metodlarni qo'llash ham darsda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rganadigan barcha asarlar qatori bu ikki adibning ijodidan berilgan namunalar ham kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 15-avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: “O‘zbekiston” – 2016.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.-Toshkent: “O‘zbekiston” – 2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
8. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 1998, 6-son.
9. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (Boshlangich ta’lim).- Toshkent, 2017.
10. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 1998, 6-son.
11. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari (Ona tili, o‘qish, matematika, atrofimizda olam va tabiatshunoslik) (1–4 sinflar).- Toshkent, 2010.
12. Azizova N. Quvnoq she’rlar//// Boshlang‘ich ta’lim, 2017, 3-son, 29-31-betlar.

13. Dolimov Z. She'riy asarlarni o'rganish // Boshlang'ich ta'lim, 2006, 3-son, 20-21-betlar.
14. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. O'qish kitobi. 4- sinf uchun darslik.- Toshkent, "Yangiyo'l Poligraf servis", 2017.
15. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Boshlang'ch sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , "Yangiyul Poligraph servise", 2008.
16. Najimova M. Matn mazmunini qayta hikoya qilishga o'rgatish// Boshlang'ich ta'lim, 2012, 4-son, 10-11-betlar.
17. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
18. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1980.
19. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti.- Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
20. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyrva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
21. Umarova M., Hakimova Sh. O'qish darslari. (3-sinf uchun o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma).- Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
22. O'tayev Q. Birinchi qo'ng'iroq (1-4-sinf).- Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2017.
23. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik.- Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017.
24. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016.

25. G'afforova T., Nurullayeva Sh. O'qish kitobi. 2-sinf. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma)- Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2014.

26. elektron ta'lim resurslari: www.ziynet.uz; www.edu.uz

<https://referat.arxiv.uz/index.php?do=files&op...fileid...>